



## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH

**Jo'rayeva Aziza**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0008-7092-140X

[azizajorayeva2008@gmail.com](mailto:azizajorayeva2008@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur ishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy, huquqiy hamda institutsional asoslari kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqotda kichik biznesning milliy iqtisodiyot rivojidadagi o'рни, uning aholi bandligini ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan moliyaviy, soliq, kredit, tashkiliy va huquqiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mazmuni va samaradorligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, davlat qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy va soliq mexanizmlari, kredit va tashkiliy yordam, iqtisodiy barqarorlik, raqobat muhiti.

## ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА

**Жураева Азиза**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В данной работе комплексно проанализированы теоретические, правовые и институциональные основы государственной поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства. В исследовании обоснована роль малого бизнеса в развитии национальной экономики, его значение в обеспечении занятости населения, формировании конкурентной среды и укреплении экономической стабильности. Кроме того, с научной точки зрения раскрыто содержание и эффективность финансовых, налоговых, кредитных, организационных и правовых механизмов государственной поддержки, реализуемых в целях развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

**Ключевые слова:** малый бизнес, частное предпринимательство, государственная поддержка, финансовые и налоговые механизмы, кредитная и организационная помощь, экономическая стабильность, конкурентная среда.

## STATE SUPPORT FOR SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Jo'rayeva Aziza

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** *This paper provides a comprehensive analysis of the theoretical, legal, and institutional foundations of state support for small business and private entrepreneurship. The study substantiates the role of small business in the development of the national economy, emphasizing its importance in ensuring employment, forming a competitive environment, and strengthening economic stability. In addition, the content and effectiveness of financial, tax, credit, organizational, and legal support mechanisms implemented by the state to promote small business and private entrepreneurship are examined from a scientific perspective.*

**Keywords:** *small business, private entrepreneurship, state support, financial and tax mechanisms, credit and organizational assistance, economic stability, competitive environment.*

**Kirish.**

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi va mazkur sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi yanada takomillashib bormoqda. Mamlakatdagi ish-bilarmonlik muhitining yanada kengayishi kichik biznes subyektlarining rag'bat asosidagi faoliyatini ta'minlashga olib kelmoqdaki, deyarli barcha tarmoqlardagi kichik biznes subyektlari yildan yilga miqdor jihatidan ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil 30-avgustda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiyotdagi ulushini oshirish bo'yicha choralar belgilangan PF-132-sonli Farmon qabul qilindi; 2025-yil 19-martda kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 55 % ga, eksportdagi ulushini 34 % ga yetkazish, 1,5 million yangi doimiy ish o'rnini yaratish va ishsizlikni sezilarli darajada kamaytirish bo'yicha yangi Prezident Farmoni qabul qilindi; shuningdek, 2025-yilda qo'shimcha moliyaviy yordamlar (270 trillion so'm va 4 trillion so'm) ajratilishi nazarda tutilgan farmonlar qabul qilindi (Фармонлар, 2024-2025).

Mamlakatda qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun yanada keng shart-sharoit yaratish, ularning erkin faoliyatini yaxshilash va amalga oshayotgan islohotlarni yanada kuchaytirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar o'z aksini topgan.

**Adabiyotlar sharhi.**

Klassik iqtisodiy maktab vakili Smit (1776) tadbirkorni foyda olish maqsadida iqtisodiy tavakkalchilikka boruvchi, ishlab chiqarishni mustaqil rejalashtiruvchi va tashkil etuvchi shaxs sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyati erkin raqobat sharoitida samarali rivojlanadi va bozor iqtisodiyotining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruratini asoslab beradi, chunki davlat tomonidan yaratiladigan huquqiy va institutsional muhit erkin raqobatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Yana bir iqtisodchi olimlardan biri Y.Shumpeter tadbirkorlikni innovatsiyalar bilan bog'lab, uni ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyasini joriy etish jarayoni sifatida talqin etadi. U tadbirkorlik qobiliyatini ishlab chiqarishning to'rtinchi omili sifatida ajratib ko'rsatadi. Shumpeter (1911) konsepsiyasiga ko'ra, innovatsiyalar iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Shu sababli, davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Institutsional iqtisodiyot vakili North (1990) iqtisodiy rivojlanishda institutlarning o'zni muhim ekanligini asoslab, samarali qonunchilik, mulk huquqining himoyasi va shaffof boshqaruv tizimi tadbirkorlik rivojining muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. Bu esa kichik

biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz olimlari Abdullayev, Muftaydinov va Aybeshovlar (2003) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning innovatsion rivojlanishini boshqarishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida innovatsion mahsulotlar assortimenti, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va kengaytirish strategiyalarini ilgari suradilar. Ergashxodjaeva (2014) tadbirkorlik faoliyatida innovatsion marketingni rivojlantirishda davlat tomonidan axborot va konsalting xizmatlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, Jo'rayev va Kalandarov tadqiqotlarida kichik biznesni innovatsion rivojlantirishning istiqbolli modellarini shakllantirishda davlatning strategik rejalashtiruvchi roli muhim ekanligi asoslab beriladi. Boltayev va Raxmatov (2019) qulay biznes muhiti, klasterlar va marketing infratuzilmasini rivojlantirish orqali tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatib o'tadilar.

Aripov (2019) hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari innovatsion faollikni oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda, klassik, neoklassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar hamda mahalliy va xorijiy olimlar tadqiqotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy izlanishlar metodologiyasida keng qo'llaniladigan umumiy va maxsus usullardan foydalanildi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil asosida kuzatish, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Shuningdek, o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni chuqur tahlil qilish maqsadida tahlil va sintez usullaridan toliq tarzda foydalanilib, ularning o'zaro uyg'unligi asosida ilmiy xulosalar keltirildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning tezkor ravishda qabul qilinishi iqtisodiy munosabatlar tizimida kichik korxonalar va xususiy tadbirkorlarning rolini mustahkamlash, ularning bozor jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish shu bilan birgalikda barqaror rivojlanishi uchun zarur institutsional shart-sharoitlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ko'pgina e'tibor berildi. Bu harakatlarni olti bosqichga bo'lingan holatda ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, bu harakatlar orqali, mamlakatimiz bo'yicha yalpi ichki mahsulotimizning ko'rsatkichlari yanada o'sishiga olib kelganini ham ko'rishimiz mumkin. Chunki O'zbekistonYAIM ning aynan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari 51.5 % ga hissa qo'shgan. Bu ko'rsatkich kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi markaziy o'rni va uning o'sib borayotgan rolini ko'rsatadi.

Birinchi bosqichda (1991–1997) xususiy mulk institutining shakllanishi va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari yaratilishi natijasida minglab kichik korxonalar tashkil etildi. Bu davrda "Kichik xususiylashtirish" dasturi doirasida savdo, xizmat ko'rsatish va mahalliy sanoat korxonalari xususiy sektor tasarrufiga o'tkazildi. Natijada aholi bandligi oshdi, bozor mexanizmlari shakllandi va ichki bozor tovarlar bilan to'ldirildi.

Ikkinchi bosqichda (1998–2005) kichik biznesni davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi. Soliq imtiyozlari, kreditlash dasturlari va maxsus jamg'armalar tashkil etildi. Shu bilan birga, davlatning iqtisodiyotga nisbatan faollashgan aralashuvi ayrim hollarda ma'muriy to'siqlarning ko'payishiga olib keldi. Natijada kichik biznes

subyektlari rivojlanish sur'atlarida vaqtinchalik sekinlashuv kuzatildi. Biroq, aynan ushbu davrda tadbirkorlikni tartibga soluvchi asosiy institutsional mexanizmlar shakllandi.

Uchinchi bosqich (2006–2010) iqtisodiyotni modernizatsiyalash, ishlab chiqaruvchi kichik biznesni rivojlantirish va hududiy dasturlarni kengaytirish bilan tavsiflanadi. Bank kreditlari, investitsiya dasturlari va davlat buyurtmalari orqali kichik ishlab chiqaruvchilar faol qo'llab-quvvatlandi. Bu esa sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qildi.

1-jadval

**O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash doirasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar bosqichlari**

| Bosqichlar | Bosqichning asosiy mazmuni                               | Tavsifi                                                                                                                                                |
|------------|----------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1991–1997  | Bozor iqtisodiyotiga o'tish va boshlang'ich islohotlar   | Xususiy mulk institutining shakllanishi, tadbirkorlik faoliyatiga huquqiy asoslar yaratilishi, kichik korxonalarni tashkil etishning yo'lga qo'yilishi |
| 1998–2005  | Institutsional rivojlanish va barqarorlashuv             | Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlari, soliq va kredit mexanizmlarining joriy etilishi, YAIMdagi ulushning oshishi            |
| 2006–2010  | Modernizatsiya va ishlab chiqarishni kengaytirish        | Ishlab chiqaruvchi kichik biznesni rivojlantirish, hududiy dasturlar, bank-moliya qo'llovining kuchayishi                                              |
| 2011–2016  | Raqobat muhitini yaxshilash va liberallashtirish         | Ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish, xususiy sektor faolligining oshishi                                   |
| 2017–2021  | Ochiq iqtisodiyot va inqirozga qarshi qo'llab-quvvatlash | Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, teng sharoitlar, pandemiya davrida soliq imtiyozlari va moliyaviy yordam mexanizmlari                           |
| 2022–2026  | Innovatsion, raqamli va barqaror rivojlanish             | Startaplar va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli xizmatlar, klasterlashuv, eksportga yo'naltirilgan kichik biznesni rivojlantirish |

*Manba:* muallif tomonidan ishlangan.

To'rtinchi bosqichda (2011–2016) tadbirkorlik muhitini liberallashtirish, ma'muriy to'siqlarni qisqartirish va ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini soddalashtirish asosiy vazifaga aylandi. Natijada kichik biznes subyektlari soni keskin oshdi, ularning iqtisodiyotdagi ulushi barqaror ravishda kengaydi.

Beshinchi bosqich (2017–2021) ochiq iqtisodiyotga o'tish, valyuta bozorini erkinlashtirish va pandemiya sharoitida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bilan ajralib turadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida soliq imtiyozlari, kredit ta'tili va moliyaviy yordam mexanizmlarining joriy etilishi minglab kichik biznes subyektlarining faoliyatini saqlab qolishga imkon berdi.

Oltinchi bosqich (2022–2026) innovatsion va raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirishning yangi institutsional bosqichini ifodalaydi. Ushbu davrda iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida innovatsiyalarni keng joriy etish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda eksportga yo'naltirilgan kichik biznes faoliyatini rag'batlantirish belgilandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonida ta'kidlanishicha, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi inson qadrini yuksaltirish, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni belgilab beradi." Mazkur strategik yo'nalishlar asosida kichik biznesni innovatsion rivojlantirish, raqamli xizmatlarni kengaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida klasterlashuv jarayonlarini jadallashtirish hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining takomillashuvi iqtisodiy o'sish, aholi bandligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Kuchli huquqiy baza, samarali institutsional mexanizmlar, moliyaviy va soliq rag'batlari kichik biznes subyektlarining barqaror faoliyat yuritishiga imkon yaratadi.

Lekin, amaliyotda hali ham ayrim muammolar saqlanib qolgan. Masalan, hududlar kesimida moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining teng emasligi, tadbirkorlarning huquqiy savodxonligining yetarli emasligi, bank kreditlariga kirishdagi murakkabliklar kichik biznes rivojiga ma'lum darajada to'sqinlik qilmoqda.

Shu bois, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

✓ Kichik biznes subyektlari uchun raqamli xizmatlarni yanada kengaytirish va "yagona darcha" tizimini to'liq joriy etish orqali byurokratik to'siqlarni minimallashtirish.

✓ Hududlarda kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jamg'armalarining faoliyatini kuchaytirish hamda imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish.

✓ Yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus inkubatsiya va akseleratsiya markazlarini tashkil etish.

✓ Kichik biznes subyektlari uchun soliq yukini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish.

✓ Tadbirkorlarning huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan tizimli trening va maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

Abdullayev, A., Muftaydinov, Q. and Aybeshov, X. (2003) *Kichik biznesni boshqarish*. Toshkent: Moliya, 240 b.

Alloma, Y. and Sayyora, A. (2025) 'Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'sish dinamikasini statistik tahlil qilish.' *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, T. 1, №. 8, C. 950-954.

Aripov, O.A. (2019) 'Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishbilarmonlik muhitini yaratish.' *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, №2. 12–18.

Boltayev, Sh.Sh. and Raxmatov, A.A. (2019) 'Tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning ayrim jihatlari.' *Xalqaro moliya va hisob*, №5, B. 45–52.

Ergashxodjaeva, Sh.D. (2014) *Innovatsion marketing*. Toshkent: TDIU, 180 b.

North, D.C. (1990) *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press, 152 p.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (2022) "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", PF-60-sonli, 2022-yil 28-yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (2024) "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", PF-132-sonli, 2024-yil 30-avgust.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni (2025) "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", PF-50-sonli, 2025-yil 19-mart.

Smith, A. (1776) *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell, 1096 p.